



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 16-апрель, № 77 (8972)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YIRIK LOYIHALAR, ZAMONAVIY MAJMUALAR — OBODLIK VA FAROVONLIK IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-aprel kuni Andijon viloyatiga keldi.



Hududdagi o'zgarishlar "havo darvozasi" danoq ko'zga tashlanadi. Mamlakatimizda transport tizimini rivojlantirish borasidagi ishlar doirasida Andijon xalqaro aeroporti ham modernizatsiya qilinmoqda.

Tashrif chog'ida davlatimiz rahbariga shu haqda axborot berildi.

Bu aeroport 1978-yilda qurilgan bo'lib, hozirgi talablarga mos kelmay qolgan edi. Uchish-qo'nish yo'lagining yuk ko'tarish qobiliyati

pastligi, zamonaviy yoritish tizimining yo'qligi sababli qatnovlarni qabul qilish imkoniyatlarini cheklangandi.

Bugungi kunda rekonstruksiya ishlarining birinchi bosqichi bitkazildi. Uzunligi 3 ming 300 metr, kengligi 60

metr bo'lgan yangi uchish-qo'nish yo'lagi, yurish yo'lagi va samolyotlar to'xtash joyi qurildi. Drenaj tizimi yangilanib, yer osti suvi qochirildi. Shuningdek, bu yerda ikkinchi yurish yo'lagi qurilishi davom ettirilib, ICAO CAT-II toifasidagi radar,

meteorologiya va yoritish uskunalarini o'rnatish ishlari olib borilmoqda.

Natijada "Boeing", "Airbus" rususidagi yirik samolyotlarni noqulay ob-havo sharoiti va tungi vaqtlarda ham qabul qilish mumkin bo'ladi. Bu

kunlik parvozlar sonini 10 barobargacha oshirish imkonini beradi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING ANDIJON VILOYATIDA YANGI BARPO ETILGAN BOBUR SHAHRIDA O'TKAZILGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar, muhtaram Andijon ahli!

Avvalo, siz, azizlar bilan yurtimizda ko'klam nafasi kezip yurgan mana shunday fayzli kunlarda diyor ko'rishib turganimdan g'oyat mamnunman. Barchangizga o'zimgizni yuksak hurmat va ehtiromimni bildiraman.

Hammangizga ma'lumki, inson qadrini ulug'lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish — Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Bugun jonajon Vatanimizning barcha viloyatlari, qishloq va ovullarida ana shu ulug' va ezigu maqsad qanday amaliy natijalar berayotganini ko'rib, albatta barchamiz cheksiz quvonamiz. Buning amaliy tasdiqini go'zal va betakror Andijon zaminida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Viloyatda sanoat, tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi, bog'u ro'g'lar barpo etish, ko'cha va mahallalarni obod qilish, aholi uchun munosib mehnat va yashash sharoitlari yaratish bo'yicha ko'plab tahsinga loyiq ishlar qilinmoqda.

Qani endi, imkon bo'lsa-yu, bu so'lim diyoriga tez-tez kelib, siz, azizlar bilan chin dildan mironiyat suhbatlashsam. Chunki sir emas, men doimo sizlar kabi maroif va tantali, qalbi — Allohda, qo'li — ishda bo'lgan insonlar bilan uchrashib, muloqot qilib, o'zim uchun beqiyos ma'naviy kuch olaman, ruhlanaman.

Ishonch bilan aytish mumkin, Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, Yangi O'zbekiston nafasi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bormoqda, xalqimizni baland-baland marralarga undamoqda.

Bu — islohotlarimizning biz kutgan, butun xalqimiz kutgan eng katta, eng muhim natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi.

Qadri do'stlar!

Faxr bilan ayta olamizki, Andijon butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy, yirik shaharlaridan biri, vodiy gavharidir. Bu ko'hna zamindan ko'plab olim va mutafakkirlar, mashhur shoir va adiblar, davlat va jamoat arboblari, madaniyat va san'at namoyandalari yetishib chiqqan.

Andijon — buyuk mutafakkir, bunyodkor shoh Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz tavallud

topgan tabarruk diyor ekani barchamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Bugungi kunda Andijonda barcha soha va tarmoqlar jadal rivojlanmoqda. Ayni paytda bu yerda juda katta salohiyat mavjud. Ana shunday ulkan imkoniyatlarimizni ishga solish, hududni yanada taraqqiy ettirish maqsadida sizlar bundan ikki yil avval Yangi Andijon shahri va "Yangi O'zbekiston" bog'ini barpo etish haqida kelishib olgan edik.

O'tgan davr mobaynida ushbu ulkan loyihani amalga oshirish borasida katta ishlar bajarilganiga barchangiz guvohsiz. Nafaqat guvohsiz, ayni paytda ularda bevosita ishtirok etmoqdasiz. Qisqa vaqt ichida havas qilsa arziyidigan mana shu go'zal shaharcha bilan birga "Yangi O'zbekiston" bog'i ham qad ko'tardi.

Siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni ana shu buyuk mehnat g'alabasi bilan samimiy tabriklayman. Bunday fayzli, muazzam maskan barchamizga, avvalo, mehnatkash va oliyanob Andijon ahliga muborak bo'lsin, buyursin!

Xalqimizning bunyodkorlik an'analari munosib davom ettirib kelayotgan, fidoyilik va tashabbuskorlik fazilatlarini amaliy ishlari bilan namoyon etayotgan Andijon ahliga, bu ishlarga hissa qo'shgan barcha insonlarga chin yurakdan tashakkur bildiraman.

Shu o'rinda ko'pdan buyon o'ylab yurgan bir tashabbusni sizlar bilan maslahat qilmoqchiman.

O'zining betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz — Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga — Bobur shahri deb nom bersak, nima deysizlar?

Qo'llab-quvvatlaganingiz uchun rahmat. Ishonchim komil, bu tashabbus har tomonlama xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ladi.

Nega deganda, hazrati Bobur — jahon tarixida kamdan-kam uchraydigan shunday benazir, ulug' zotki, uning sharafiga nafaqat ko'cha va maydonlar, bog'u ro'g'lar, balki alohida shahar bunyod etsak, albatta arziydi.

Nega deganda, Bobur Mirzo — Temuriylar Renessansining munosib davomchisi, ilm-fan,

madaniyat, san'at va adabiyot, iste'dod homiysi bo'lgan buyuk shaxsdir.

Uning yoshlik paytlaridan yurtda tinchlik va adolat o'rnatish uchun olib borgan kurashlari, bu yo'lda ko'rsatgan mardlik va jasorati fidoyilik va vatanparvarlik maktabidir.

Hech shubhasiz, qomusiy bilim va tafakkur egasi bo'lgan bu mumtoz ajdodimizning birgina "Boburnoma" asari uchun ham uning sharafiga mana shunday go'zal shaharchani bunyod etsak, arziydi.

Chunki takror aytishga to'g'ri keladi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olamga mashhur ajdodlarimiz borligini, ular O'zbekiston farzandi ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak.

O'zligimizni anglab, shonli tariximizni yosh avlodimizga, bolalarimizga tushuntirsa, ilm-ma'rifatni rivojlantirsa, ulug' bobolarimizga munosib bo'lib yashasa, Yangi O'zbekistonda ham, Uchinchi Renessansi ham albatta quramiz!

Aziz do'stlar! Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz bor-yo'g'i 47 yil umr kechirdi. Shu qisqa vaqt davomida u inson aqli bovar etmaydigan qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan, qanday me'moriy obidalar, bog'u ro'g'lar barpo etib, o'zidan o'chmas nom qoldirib ketgani ham barchamiz uchun yuksak o'rmaq namunasidir.

Shu ma'noda, hazrati Boburning shonu shuhrati va qadr-qimmatini joyiga qo'yish, uning bebaho merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish, butun dunyoga targ'ib etish hurmatli olim va adiblarimizning, hammamizning muhim burchimiz hisoblanadi.

Viloyat ziyolilari, bilimdon yoshlarimiz, butun Andijon ahli bu borada yanada faollik ko'rsatadilar, deb ishonaman.

Nega deganda, andijonliklar o'zining bu ulug' farzandi xotirasini o'sha og'ir, mustabid tuzum davrlarida ham qalbidan, xotirasida e'zozlab-ardoqlab kelganini yaxshi bilamiz. Davlatimizning yaqin yordami bilan hurmatli oqsoqolimiz Zokirjon aka Mashrabov kabi o'nlab ma'rifatparvar insonlar, Bobur xalqaro fondi va ilmiy ekspeditsiyasi qanday katta ishlarni amalga oshirib kelayotganini yuksak qadrlaymiz.

Bu borada bir masalaga alohida e'tibor qarashimiz zarur: Bobur Mirzoning bebaho merosi — bu bir ummon. Ummonning esa hech qachon tubiga yetib bo'lmaydi.

Shuning uchun mamlakatimizda, viloyatda boburshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar to'xtab qolmasligi, aksincha, yangi avlod, azmu shijoatli yoshlarimiz tomonidan davom ettirilishi, yanada yuksak bosqichga ko'tarilishi lozim. Bu ishda men sizlarga har tomonlama yordam berishga doimo tayyorman.

Aziz do'stlar! Mamlakatimizda amalga oshirayotgan barcha o'zgarish va islohotlarimiz Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimizning orzu va maqsadlari, hayotiy ideallari, ulug'vor ishlariga hamohang, desak, yangilashmagan bo'lamiz.

Bugun sizlar bilan birgalikda Bobur bobomiz tug'ilib o'sgan tabarruk zaminda ul zotning dilida qolgan armonlarini ro'yogga chiqarish yo'lida yana bir tarixiy voqeaning ishtirokchisi bo'lmoqdamiz, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Bobur shahrini barchamiz orzu qilayotgan eng go'zal, eng zamonaviy shaharga aylantirish bugundan boshlab real vazifa qilib kun tartibiga qo'yiladi. Bu shahardan haqiqiy boburiylar yetishib chiqishi uchun bobomiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan bog'cha va maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT parkdan iborat yirik ta'lim klasteri barpo etiladi. Oliyog'oh tarkibida eng yuqori talablarga javob beradigan sport kompleksi ham quriladi.

Bir so'z bilan aytganda, barchamiz birlashib, Bobur shahrini milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etadigan ma'naviy maskanga, ta'lim va ilm-fan shahriga, yoshlarimiz uchun ilhom va ibrat, parvoz maydoniga, nafaqat vodiy, balki mamlakatimizning turizm va madaniyat markaziga, "yashil infratuzilma" asosida qurilgan zamonaviy "smart-siti", ya'ni "aqli" shaharga aylantiramiz.

Bobur shahrining maydoni 4 ming gektar bo'ladi va bu yerda 500 ming aholi munosib yashashi va ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Bu shahar, xuddi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nomi qo'yilgan azim shahar kabi, shonli tariximiz va kelajagimiz o'rtasida ma'naviy ko'priklar bo'ladi, yangi tariximizdan munosib o'rin oladi.

Mana shu bog' hududining eng baland nuqtasida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning yangi, muhtasham haykalini ham o'rnatamiz.

Bobur shahri milliy madaniyat va san'atimiz, o'zbekona mehmondo'stlik, bag'rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgu bo'lishi zarur.

Ushbu ezigu maqsadlarni amalga oshirish uchun katta dastur qabul qilamiz, 250 million dollarlik dastlabki kapitalga ega bo'lgan alohida jamg'arma tashkil qilinadi. Har yili bu jamg'armaga qo'shimcha mablag' ajratiladi.

Bugungi tadbirda Bosh vazir o'rinbosarlari, mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari ham ishtirok etyapti. Ularga alohida topshiriq: ushbu megaloyiha bir oydan kechikmay boshlanishi shart.

Hurmatli Andijon ahli! Mana shu zamonaviy amfiteatr sahnasida, mana shu go'zal bog'da xalqimizning nodir san'ati doimo namoyish etilib, ulug' shoirlarimiz she'riari yangrab tursa, ayni muddao bo'ladi.

Bu oqshom ushbu yangi madaniyat maskanida atoqli san'atkorlar va iste'dodli yosh ijrochilar ishtirokida bo'lib o'tadigan konsert dasturi shu yo'lida ezigu an'anani boshlab beradi, desak, to'g'ri bo'ladi. Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha madaniyat va san'at sohasi xodimlarini bugungi kasb bayrami bilan butun xalqimiz nomidan, o'z nomidan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Barchamiz yaxshi bilamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qaysi yerida, qaysi o'lkasida bo'lmasin, bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi. Bugun buyuk ajdodimizning armonlari yashaldi, ul zot o'z yurtiga ruhan qaytib keldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Mana shunday ulug', tarixiy kun barchamizga muborak bo'lsin!

Sizlarga, sizlarning timsolingizda Andijon ahliga tinchlik-omonlik, mustahkam sog'liq, yangi yutuq va omadlar tilayman.

Faxr

YANGI ANDIJONNING BOBURI QAYTDI

*Ko'ngilga atalgan baxt nuri qaytdi,
Zamonaning go'zal sururi qaytdi,
Qaroko'z eliga yaxshilik istab,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Otashqalb o'g'lingni anglagil endi,
Sog'ingan she'ringni tinglagil endi,
Yayrasang arziydi, ey ko'ngil endi,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Hazrati Navoiy e'tirofdan shod,
Xorazmiy boqadir ko'ngli hur, obod,
Beruniy xursanddir etilgandan yod,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Vatanim qo'ynida bu ko'rkam xilqat,
Baxsh etgay dillarga cheksiz muhabbat,
Olamga ko'ringini ko'z-ko'zla abad,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Ko'klam nafasidan bog'lar barq urgan,
Ko'rkini dashtu tog' ko'z-ko'zlab turgan,
Avlodlar doimo sog'inib yurgan,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Hali gard inmagan shaffof sahar bu,
Tongida yuz ochgan bitta gavhar bu,
Nurlar og'ushida oydin shahar bu,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Ozod yurt baxsh etgan saodatidir,
Buyuk shoiriga oqibatidir,
Yurtboshi mehridir, muhabbatidir,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

*Ma'rifatning o'tli hovuri qaytdi,
Ishonchi, sharafi, g'ururi qaytdi,
Mushtoq dilbandingga quchog'ingni och,
Yangi Andijonning Boburi qaytdi.*

O'tkir RAHMAT

YIRIK LOYIHALAR, ZAMONAVIY MAJMUALAR — OBODLIK VA FAROVONLIK IFODASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Endi, ikkinchi bosqichda yo'lovchi terminalini yangidan qurish ko'zda tutilgan. Bu orqali yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish quvvati soatiga avvalgi 300 tadan 1000 taga, parvozlar soni yiliga 584 tadan 3 ming 700 taga ortadi. Bu Andijon shahri va Farg'ona vodiysiga qatnovlar sonini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Faoliyatini qayta boshlagan mazkur aeroportda hozirda Toshkent — Andijon — Toshkent yo'nalishi bo'yicha parovzlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz bu yerda samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish, xizmatlarni arzon qilish, mahalliy va xalqaro parovzlarni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Umuman, mamlakatimizda aeroportlarni modernizatsiya qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan yillarda Samarqand, Termiz, Urganch, Shahrisabz, Mo'ynoq, Qo'qon va Zomin aeroportlari yangilandi. Yana bir qator viloyatlarda modernizatsiya jarayonlari davom etmoqda.

Davlatimiz rahbari o'tgan yilning fevral oyida Andijonga tashrif chog'ida yo'lovchi istiqbolli loyihalar bilan tanishib, viloyatda olib borilayotgan qurilish, bunyodkorlik ishlarini ko'lamini kengaytirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va servis sohalari jadal rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish yuzasidan tegishli vazifalarni belgilab bergan edi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'tgan yili viloyatda yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2023-yildagiga nisbatan sezilarli darajada o'sdi. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 26,4 million so'mni tashkil qildi.

Prezident tashrifining ikkinchi manzili "WBM Romitex" klasterining Andijon shahrida qurilgan yangi korxonasi bo'ldi. "WBM Fabrics" nomli ushbu korxonada qayta ishlab zavjirning navbatdagi bosqichi. Umumiy qiymati 50 million dollarlik investitsiya loyihasi doirasida zamonaviy sanoat inshooti qurilib, Italiya va Germaniyadan yuqori texnologik uskunalari keltirib o'ratildi. Matoni bo'yash va gul solish yo'lga qo'yildi. Korxonada yiliga 24 ming tona shunday rangdorgir mahsulot tayyorlash quvvatiga ega. Loyiha doirasida 600 ta doimiy ish o'rni yaratildi.

Yana bir e'tiborli tomoni, majmuada Italiyadan keltirilgan zamonaviy suv

tozalash inshooti barpo etilgan. Unda bo'yoy suv tozalash texnik suv tozalab, qayta foydalanishga yo'naltiriladi. Bu tejamkorlik va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi, mutaxassislar bilan muloqot qildi. Ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish, energiya tejamkorlik orqali tannarxni kamaytirish, ishchilarning kasbiy malakasini oshirish masalalari to'g'risida so'z yuritildi.

Qayd etish joizki, korxonada faoliyati tashqi bozorga ixtisoslashtirilgan, yillik eksport hajmi 55 million dollar tashkil etadi.

Andijon viloyatida to'qimachilik sanoati jadal rivojlanmoqda. Hududda yetishtirilgan paxtani zamonaviy klaster tizimida chuqur qayta ishlash kengayib borayotir. Viloyatning respublika to'qimachilik sanoatidagi ulushi 16,5 foiz. 2024-yilda Andijonda 20 trilyon so'mlik to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, 488 million dollarlik eksport qilingan. Bu viloyat umumiy eksportining 42 foizini tashkil etadi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2024-yil davomida investitsiya loyihalari doirasida uch yuz sakkonta loyiha amalga oshirildi. Bunda to'qimachilik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalari salmoqli o'rinni egalladi. Mazkur loyihalarni ishga tushirish hisobiga o'ttiz ikki mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatida 2025-yilda erishilishi rejalashtirilgan asosiy maqsadlarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilning birinchi choragida investitsiya loyihalari samarasida hamda tijorat banklari ishtirokida 77 ming nafar fuqaro ish bilan ta'minlangan.

Umuman, 2025-yilda 5 milliard 700 million dollarlik 166 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu orqali 31 mingta ish o'rni ochiladi. 31 turdagi yangi mahsulot olish yo'lga qo'yilib, 1,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. Korxonalarni barqaror energiya bilan ta'minlash uchun 65 megavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Bu ishlarni davom ettirib, yil yakuniga qadar umumiy 305 ming nafar aholini daromadli ish bilan ta'minlash maqsad qilingan.

Taqdimotda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

2025-yilda iqtisodiy o'sish sur'ati 5,5 foizga yetishi kutilmoqda.

Prezident mutasaddilarga loyihalarni o'z vaqtida bajarib, aholini daromadli ish bilan ta'minlash, ixtisizlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatining hududiy sanoat yarmarkasini borib ko'rdi. Bu yerda 110 ta korxonaning 500 ga yaqin mahsulotlari namoyishga qo'yilgan. Jumladan, avtomobilsozlik, mashinasozlik, to'qimachilik, elektr texnikasi, raqamli texnologiyalar, qurilish materiallari, oziq-ovqat, gulchiilik, asalarichilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlardagi samarali loyihalar taqdim etilgan.

Davlatimiz rahbari viloyatda ishlab chiqarilayotgan keng turdagi mahsulotlar va ilg'or ishlanmalar bilan tanishdi, ularning tashabbuskorlari bilan suhbatlashdi. Yaxshi tajribalarni ko'lab-quvvatlab, yurtimiz miqyosida ommalashtirish zarurligini ta'kidladi.

Shu maqsadda yarmarkaga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkentdan mas'ullar va tadbirkorlar taklif etilgan. Ular mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqarish, kooperatsiya va savdo-sotiq masalalarida fikr almashmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyatida 11 mingdan ziyod sanoat korxonalari bor. Ularning respublika sanoatidagi ulushi 10 foizdan yuqori.

Xususan, hududda 47 ta sanoat zonasi tashkil etilgan. Ularda 2,3 trilyon so'mlik 1000 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 18 ming kishi ish bilan ta'minlangan. Mazkur zonalarda 2024-yilda 1 trilyon so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, qariyb 31 million dollarlik eksport qilingan.

Hozirda qiymati 1 milliard dollarlik 288 ta investitsiya loyihasi amalga oshirish jarayonida.

Jumladan, bu yil 119 ta loyiha ishga tushirilib, 4 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi. Sanoat mahsulotlari eksporti 47 million dollarga yetkaziladi.

O'tgan yilgi tashrifdan so'ng Oltinko'l tumanidan 16 gektar yer ajratilib, mebellarni klaster usulida ishlab chiqarish majmuasi tashkil etilgan edi. Bu yerda 100 dan ortiq ustaxona, 236 ta shourum va savdo nuqtalari joylashgan.

Andijon mamlakatimizda aholi eng zich joylashgan hudud. O'zbekistonning 10 foiz aholisi 1 foiz yerida yashaydi. Shu bois davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda yangi shahar qurilishi boshlangan edi. Bu galgi tashrifda Prezident loyihaning ilk natijalarini ko'rdi.

Ushbu shahar Andijon tumanidagi adirlikda, qishloq xo'jaligida foydalanilmagan 4 ming gektar

maydonda barpo etilmoqda. Qurilish sakkiz bosqichda rejalashtirilgan bo'lib, hozirda 1 ming 770 ta xonadonli 63 ta uy foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 1 ming 680 o'rinni maktab, 420 o'rinni bolalar bog'chasi, 250 qatnovga mo'ljallangan poliklinika qurilgan. Yengil sanoat korxonasi, ipoteka markazi tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari hudud bo'yab yurib, yangi majmualarni ko'zdan kechirdi.

Tayyor xonadonlarning ko'pchiligiga oillar kelib yashamoqda. O'yin maydonchalaridagi bolakaylarning shodliklari ko'ngillarga quvonch, halovat bog'ishlaydi. Bunyodkorlik ishlari jadal davom ettirilib, bu yil mingdan ziyod xonadonli yana 40 ta ko'p qavatli uy barpo etiladi.

Inshootlar yo'l, elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv, issiqlik kabi zarur tarmoqlar bilan ta'minlangan. Ichimlik suvi yetkazib berish uchun sig'imi to'rt ming metr kub bo'lgan suv saqlash va uzatish inshooti ishga tushirildi.

19 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo etilib, o'n ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko'challari, buta va gullar ekildi. Amfiteatr, dam olish joylari, dekorativ yo'laklar, kafelar, bolalar o'yinchoi, yoritish tizimlariga ega bo'lgan bog' Yangi Andijonning ko'riki bo'ldi.

Bu yerdagi "Vatanparvar bog'i" katta ramziy ma'noga ega. Bog'dagi "Vatanga qasamyod" monumenti, muzey, konsert va tomosha maydonlari mehmonlarda katta taassurotlar qoldiradi.

Loyiha ko'lamli keng. Hududning 1 ming 439 gektarida 2 mingta ko'p qavatli turarjoy qad rostlaydi. Shuningdek, ko'plab savdo va xizmat ko'rsatish shoxboshalari, 1 ming 820 gektarda yashil hududlar tashkil etiladi. Qurilishlar bitgach bu yerda 410 ming nafardan ziyod aholi yashashi mumkin bo'ladi.

Shu yerda yangi qurilish va obodonlashtirish loyihalari taqdimot qilindi. Unga ko'ra Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i ta'mirlanadi. Yangi Andijonda Zahiriddin Muhammad Bobur haykali o'rnatiladi. Prezident bunda Boburning siymosini haqqoniy aks ettirish, atrofini boburiylar merosi bo'yicha tematik parkka aylantirish yuzasidan o'z fikrlarini bildirdi.

Davlatimiz rahbari yangi bog'da hunarmandchilik, badiiy va amaliy san'at ko'rgazmalarini tomosha qildi. Andijonda har yili rassomlar festivalini o'tkazish tashabbusini ilgari surdi.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijondagi "Yangi O'zbekiston" bog'idagi xalq saylida ishtirok etdi.

Andijonlik yoshlar bilan muloqotda ularga yuksak ishonch bildirildi.

– Davlatimizning eng ustuvor maqsadlaridan biri – yoshlar siyosati. Ta'lim-tarbiya, mahalla, bandlik, sport tizimlarida qilayotgan ishlarimiz farzandlarimizning manfaatlarini uchun. Bizning yoshlarimiz qobiliyatli, iste'dodli. Bu iste'dod qachon yuzaga chiqadi? Mehnat bo'lsa. Bilim olib, intilgan odam hech qachon kambag'al bo'lmaydi, ishini topadi. Siz ham o'qib, izlanib, zamonaviy kasb-hunarlarini egallang. Baxtli bo'lish uchun bugun zamin yaratishingiz kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz Andijonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari bilan ham uchrashdi. Mamlakatimizdagi tinchlik-totuvlik, millatlararo ahillik eng qadri ne'mat ekanini ta'kidladi.

Bog'dagi amfiteatrda konsert dasturi namoyish etildi. Davlatimiz rahbari tadbirida nutq so'zlab, viloyat ahliga yuksak hurmatini bildirdi.

– Inson qadrini ulug'lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish – Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir. Bugun Vatanimizning barcha viloyatlari, qishloq va ovullarida ana shu ulug' maqsad qanday amaliy natijalar berayotganini ko'rib, albatta, barchamiz cheksiz quvonamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Buning amaliy tasdiqini go'zal va betakror Andijon zaminida ham yaqqol ko'rish mumkin. Viloyatda sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, bog'u roglar barpo etish, ko'cha va mahallalarni obod qilish, aholi uchun munosib mehnat va yashash sharoitlari yaratish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda.

– Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, Yangi O'zbekiston nafari har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bormoqda, xalqimizni baland-baland marralarga undamoqda. Bu – islohotlarimizning biz kutgan, butun xalqimiz kutgan eng katta, eng muhim natijasi, – dedi Prezident.

Andijon yurtimizning tarixiy shaharlaridan biri, vodiy gavharidir. Bugungi kunda viloyatda barcha soha va tarmoqlar jadal rivojlanmoqda. Ayni paytda bu yerda juda katta salohiyat mavjud. Ana shunday imkoniyatlarni ishga solish, hududni yanada taraqqiy ettirish maqsadida Yangi Andijon shahri qurilmoqda. Qisqa vaqt ichida bu yerda so'lim "Yangi O'zbekiston" bog'i ham barpo etildi.

Davlatimiz rahbari bu ishlarga hissa qo'shgan barcha insonlarga tashakkur aytdi.

Andijon Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan diyor ekani bilan ham mashhur. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri, deb nom berish tashabbusini ilgari surdi. Buni andijonliklar xursandchilik bilan qo'llab-quvvatladilar.

Bobur Mirzo temuriylar tamaddunining munosib davomchisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot homiysi bo'lgan buyuk shaxsdir. U betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan. Uning sharafiga alohida shahar bunyod etilsa arziydi. Bu Bobur Mirzoning dilida qolgan armonlarini ro'yogga chiqarish yo'lida yana bir tarixiy voqea bo'lib qolishi ta'kidlandi.

Shaharda ixtisoslashtirilgan bog'cha va maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT parkdan iborat yirik ta'lim klasteri barpo etiladi. Oliyog' tarkibida eng yuqori talablarga javob beradigan sport majmuasi ham quriladi.

Bobur shahri milliy qadriyatlarimizni mujassam etadigan ma'naviy maskanga, yoshlar uchun ilhom va ibrat, parvoz maydoniga, yurtimizning yana bir turizm va madaniyat markaziga, zamonaviy texnologiyalar qo'llangan "aqli" shaharga aylantiriladi.

Bu shahar, xuddi buyuk sho'ir va mutafakkir Navoiy nomi qo'yilgan azim shahar kabi shonli tariximiz va kelajagimiz o'rtasida ma'naviy ko'priki bo'ladi, yangi tariximizdan munosib o'rinni oladi. Hududdagi bog'ning eng baland nuqtasida Zahiriddin Muhammad Boburning yangi, muhtasham haykali o'rnatiladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun dastur qabul qilinib, 250 million dollar yo'natiladi.

– Barchamiz bilamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qayerida, qaysi o'lkasida bo'lmagan, bir umr Vatani sog'inchi bilan yashagan. Bugun buyuk ajdodimizning armonlari ushaldi, ul zot o'z yurtiga ruhan qaytib keldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz. Mana shunday ulug', tarixiy kun barchamizga muvofiq bo'lsin, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari 15-aprel – Madaniyat va san'at xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillarini ham samimiy tabrikлади.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrif davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O'ZA muxbirlari.

Uchrashuv



Parlamentlararo aloqalarni kengaytirish istiqbollari

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Ufuk Ulutash bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi davlatlararo va parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi, shuningdek, ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi.

Tomonlar O'zbekiston – Turkiya munosabatlari ikki davlat rahbarlarining muntazam siyosiy muloqoti va yaqin hamkorligi tufayli yuksak darajasini namoyon etib, jadal rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladi. Eritilgan natijalarga qoniqish sifatida, parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashga esa ikki tomonlama strategik sheriklikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda parlamentlararo bo'lajak tashriflarni tashkil etish, qo'shma tadbirlar o'tkazish va ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida tajriba almashishga alohida e'tibor qaratildi.

Elchi Ufuk Ulutash Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga amalga oshirgan tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, ushbu bitimlar strategik sheriklikni rivojlantirishda yangi bosqichga aylanganini qayd etdi va o'z mamlakati O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni bundan buyon ham har tomonlama qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Uchrashuv yakunida xalqaro va mintaqaviy parlament tuzilmalari, shu jumladan, Turkiya mamlakatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) doirasida faol hamkorlik qilish hamda o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlash bo'yicha yakdill fikr bildirildi.

“Xalq so'zi”.

DOLZARB MUAMMOLARNING QONUNIY YECHIMI

Kecha Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, ekspertlar, vazirlik va idoralar vakillari hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Senat qo'mitasida

Majlisda "Issiqxona gazlari"ning chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Qonunda "Issiqxona gazlari" chiqarilishini kamaytirish natijasida hosil bo'ladigan uglerod birliklari muomalasini amalga oshirishning tartibini belgilash hamda "Issiqxona gazlari" chiqarilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlashga e'tibor qaratilgan. Unda bunday gazlar chiqarilishini cheklashning asosiy tamoyillari, uning monitoringi, hisoboti va verifikatsiya tizimi asoslari, tartibi, qisqartirilgan "Issiqxona gazlari"ga egalik qilish huquqlari belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda iqlim o'zgarishi bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirish, atrof-muhit va ekologiyani yaxshilash hamda iqtisodiyotni

barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Qo'mita majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Qonun bilan Yer kodeksiga sug'oriladigan yerlarni boshqa toifaga bo'yicha talablarni kuchaytirishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilayapti. Jumladan, toifasi o'zgartirilgan yerlardan kelgusida foydalanish bo'yicha aniq shartlar belgilanib, yer uchastkasini olganlik va yerdan foydalanilganlik uchun haq bo'yicha qarzdorlik 6 oy ichida bartaraf etilmasa, yerga bo'lgan huquqni bekor qilish nazarda tutilmoqda.

Yer uchastkalariga egalik qilgan yuridik va jismoniy shaxslar elektron onlayn-auksion

natijalariga ko'ra yoki baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadigan miqdorda haq to'lashi, shuningdek, qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rmini qoplashi shartli belgilanmoqda.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yer osti suvlariga quduqni qonunga xilof ravishda foydalanilganlik, ulardan nazoratsiz va hisobsiz buydalanganlik uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Kelajakda sug'oriladigan yerlarni boshqa toifaga o'tkazish bo'yicha talablar qonun darajasida yanada kuchaytiriladi, toifasi o'zgartirilgan yerlardan foydalanishga aniq shartlar qo'yiladi. Yer osti suvlaridan ruxsatsiz foydalanish holatlari kamaytiriladi hamda ushbu sohalardagi huquqbuzarliklar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligi yanada oshadi, sohada davlat nazorati samaradorligi kuchayadi.

Shuningdek, yer osti suvlariga quduqlarni burg'ulash faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qulayliklar yaratiladi.

IQTISODIY HAMKORLIK BO'YICHA HUKUMATLARARO KOMISSIYANING NAVBATDAGI YIG'ILISHI

Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.

Xiva shahrida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda hamraisiligida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda so'nggi yillarda O'zbekiston – Tojikiston hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilgani, mamlakatlarimiz

o'rtasidagi ittifoqchilik aloqalari amaliy jihatdan mustahkamlanib borayotgani, bunda, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon o'rtasidagi ishonchli munosabatlar hamda ularning siyosiy irodalari muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi

va boshqa sohalarda hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishga qaratilgan istiqbolli loyihalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarga qaratildi.

Qayd etilganidek, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi oxirgi besh yilda ikki barobar o'sdi. Qo'shma korxonalar soni uch yuzdan oshdi. Bu ko'rsatkich doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shu bilan birga, tovar aylanmasi ko'rsatkichi mamlakatlar salohiyatiga to'laqonli mos kelmaydi va hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari, davlatlar rahbarlari hukumatlar zimmasiga

2030-yilgacha o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'llagan.

Yig'ilishda buning uchun sanoat kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirish, transport va kommunikatsiya sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, suv resurslari va energetika sohasida o'zaro manfaatli samarali hamkorlikni davom ettirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, mamlakatlarimiz hududlari o'rtasidagi hamkorlikni faol rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi bildirildi.

Yakunda O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning o'n ikkinchi yig'ilishi bayoni imzolandi.

Shuningdek, ikki mamlakat Bosh vazirlari birgalikda Xivadagi "Ichan qal'a" yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdi. "Ochiq osmon ostidagi muzey" deya e'tirof etiladigan mazkur Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan-bir butun boshli shahar Tojikiston delegatsiyasida katta taassurot qoldirdi.

Ahmadjon SHOKIROV,
O'ZA muxbiri.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

AHOLI HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARI YANADA KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov aprel oyining birinchi o'n kunligida yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y bergan muhim voqe'liklar, jumladan, shu yil 3-4-aprel kunlari Samarqandda o'tkazilgan birinchi "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti, shuningdek, Samarqand xalqaro iqlim forumi hamda 5 - 9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi va ularda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif-tashabbuslar haqida to'xtalib o'tdi.

Assambleyadagi nutqda davlatimiz rahbari xalqaro parlamentlararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratgani ta'kidlandi. Jumladan, global va mintaqaviy nizolarga xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan me'yorlari, BMT Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhimligi, iqlim o'zgarishi, xotin-qizlar huquqlari, Parlamentlararo Ittifoq faoliyatiga yoshlarni keng jalb qilish, har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlash masalalariga doimiy e'tibor qaratish kerakligiga urg'u berilgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbarining fundamental takliflari assambleya ishtirokchilari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, Parlamentlararo Ittifoqning strategiyasi va maqsadlariga to'la mosligi ta'kidlandi. Shu bois bu tashabbuslar tadbir yakunida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida to'la aks ettirilgani urg'ulandi.

Assambleya doirasida Qonunchilik palatasi vakillari tomonidan 96 ta xorijiy davlat delegatsiyalari bilan uchrashuvlar o'tkazilgani va muayyan kelishuvlarga erishilgani aytib o'tildi.

Majlisda sud jarayonlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish, xo'jalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashi hamda majoritar aksiyadorlarning mas'uliyatini kuchaytirish, tegishli yuklarning tranziti hajmini oshirishga va qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish, nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash, sun'iy intellektni qo'llashda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish, sud qarorlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilishga oid qator qonun loyihalari muhokama markazida bo'ldi.

Munosabatlarning yangi bosqichi

O'zbekiston Respublikasi bilan Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Bitimni (Toshkent, 2024-yil 27-sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va BAA o'rtasidagi aloqalar jadal rivojlanmoqda. Xususan, bugungi kunga qadar davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo doirada ekstraditsiya, jinoyat ishlarida o'zaro yordam, havo qatnovi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, ikki tomonlama daromad soligidan ozod qilish, fan va texnika hamda boshqa sohalarida 31 hujjat imzolangan.

Ushbu Bitim BAA delegatsiyasining mamlakatimizga tashrifi doirasida 2024-yil 17-sentyabr kuni Toshkent shahrida imzolangan. Hujjatda ikki davlat o'rtasidagi fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatishga qaratilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bir tomon fuqarolarini boshqa tomon hududida ularning fuqarolari bilan bir xildagi huquqiy himoyaga ega bo'lish, fuqarolik va iqtisodiy masalalarda sud va huquqiy muhofaza qiluvchi organlarga ushbu tomon fuqarolari uchun belgilangan shartlarda murojaat etish huquqi bilan ta'minlash nazarda tutilmoqda. Shuningdek, ikki davlat aholisining fuqarolik va iqtisodiy munosabatlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish va sud hujjatlarini tan olish kabi masalalarda huquqiy yordam ko'rsatish tartibi belgilanyapti.

Qonun loyihasi yuzasidan ma'ruza qilgan deputat Shoir Rajabovning qayd etishicha, mazkur Bitim O'zbekiston bilan Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish, ikki davlat o'rtasidagi fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish yo'nalishidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Inson sha'ni, qadr-qimmatini - oliy qadriyat

Deputatlar O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini sud orqali ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligini ta'minlash bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratilgan. Shu bilan birga, yopiq sud majlisi ishtirokchilarining shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar oshkor etilishining oldini olish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan bir qator qonun hujjatlariga yopiq sud majlisi ma'lumotlari va tafsilotlarni oshkor qilmaslik bo'yicha yopiq sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslarga tegishli majburiyat yuklashni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Majlisda ushbu qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator takliflar ishchi guruh a'zolari, huquqshunoslar ishtirokida chuqur tahlil qilingani va loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash chog'ida e'tiborga olinib, ular asosida hujjat matni har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilgan holda maromiga yetkazilgani qayd etildi.

Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi sud jarayonlarida shaxsning huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlarini yanada kuchaytirish, shaxsiy hayot haqidagi ma'lumotlar oshkor etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

E'tirozlar inobatga olindi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat - "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Loyiha bilan shaxsni profilaktik hisobga olish asoslari va tartibi zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilmoqda. Xususan, aybsizlik prezumpsiyasi talablaridan kelib chiqib, o'ziga nisbatan yuritilayotgan jinoyat ishi ayblik masalasi hal etilmasdan turib tugatilgan, reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan shaxslar, shuningdek, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchilar profilaktik hisobga qo'yiladigan shaxslar qatoridan chiqarilmoqda.

Bundan tashqari, profilaktik hisobga qo'yiladigan ma'muriy huquqbuzarlik turlari qayta ko'rib chiqilib, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi, xususiyati, kelgusida jinoyi qilmish tarkibini berishi mumkinligi mezonlaridan kelib chiqib o'zgartirilyapti.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar ko'tarildi. Jumladan, 35-moddaning to'rtinchi xatboshisidagi sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun sud tomonidan muayyan muddatga transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxslarni profilaktik hisobga olish ko'zda tutilayotgani jiddiy e'tirozlarga sabab bo'ldi. Deputatlar ta'kidlashicha, transport boshqarish huquqidan mahrum etilganing o'zi yetarli, uni yana profilaktik hisobga olib, mahalla noziri tomonidan nazorat qilinishi fuqaroning shaxsiy erkinligiga daxl etadi. Bu norma bir huquqbuzarlik uchun ikki marta jazo berishga asos bo'ladi. Shuning uchun ham Konstitutsiya va inson huquqlari nuqtayi nazaridan qaralganda, bu normani loyihadan chiqarib tashlash maqsadga muvofiqiy aytiladi.

O'z navbatida, Ichki ishlar vazirlik vakillari e'tirozlarga javoban bu boradagi ayrim statistik ma'lumotlarni keltirib, haydovchilik huquqidan mahrum etilgan shaxslar tomonidan yana transport boshqarilishi jinoyi javobgarlikka sabab bo'lishi, agar ular profilaktik hisobga olinsa, ham jinoyi javobgarlikka tortilishining oldi olinishi, ham yo'l transport hodisalarini bartaraf qilinishini ta'kidlashdi.

O'zLiDeP, "Milliy tiklanish" DP, O'ZXPDP fraksiyalari a'zolarining uzoq munozaralari va e'tirozlaridan keyin 35-moddaning to'rtinchi xatboshisidagi norma tahriri o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra, faqatgina "yo'l bezoriligi" va "transport vositalarini mastlik holatida boshqarish" ma'muriy huquqbuzarligini sodir etganda sud tomonidan muayyan muddatga transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish jazosi tayinlangan shaxslar profilaktik hisobga olinadigan shaxslar qatoriga kiritilmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Mas'uliyat kuchaytiriladi, manfaatlar himoya qilinadi

Aksiyadorlik jamiyatining ijro organi, kuzatuv kengashi hamda majoritar aksiyadorlarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Co'nggi yillarda mamlakatimizda korporativ munosabatlarni rivojlantirish hamda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin shunga qaramay, aksiyadorlik jamiyatlarining ijro organlari, kuzatuv kengashlari a'zolarining fidutsiar majburiyatlarini, majoritar aksiyadorlarining umumiy majburiyatlarini hamda ushbu majburiyatlar bo'yicha javobgarlikni belgilashni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga aksiyadorlik jamiyatining ijro organi, kuzatuv kengashi a'zolarining majburiyatlarini, majoritar aksiyadorlarining umumiy majburiyatlarini hamda bu bo'yicha javobgarlikni aniqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.



Munozaralar davomida qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan bir qator takliflar ishchi guruh a'zolari, huquqshunoslar ishtirokida chuqur tahlil qilingani va loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash chog'ida e'tiborga olinib, ular asosida hujjat matni har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilgan holda maromiga yetkazilgani qayd etildi.

Deputatlarining aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi aksiyadorlik jamiyatining ijro organi, kuzatuv kengashi, majoritar aksiyadorlarining mas'uliyati oshirilishiga hamda jamiyat va aksiyadorlarning manfaatlarini himoyasi uchun xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Ayrim huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik bekor qilinmoqda

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga huquqiy ta'sir choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipiga amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi atroflicha muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va ijtimoiy-siyosiy voqe'liklarning mazmunidan kelib chiqib, har bir sohaga alohida kompleks yondashuv asosida huquqbuzarlikka mos huquqiy ta'sir choralari belgilashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilinmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan ham qilmishlarning xususiyati, jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun yetarlichadan kelib chiqqan holda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ayrim huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni bekor etishga qaratilgan tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda. Uning qabul qilinishi huquqiy ta'sir choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga, fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlarini yanada kuchaytirishga hamda tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

NNT faoliyati qo'llab-quvvatlanadi

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasining muhokamasi ham qizg'in kechdi.

Amaldagi qonunchiligimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda jamoatchilik nazorati natijasi bo'yicha davlat organlariga kiritilgan yakuniy hujjatni belgilangan muddatda ko'rib chiqmaslik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlik choralari o'rnatilmagan. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik uchun ma'muriy jarima miqdorlari yuqorilgicha saqlanib qolyapti. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarining asosli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Mazkur qonun loyihasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik, jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan jamoatchilik nazorati natijasi bo'yicha davlat organlariga kiritilgan yakuniy hujjatni belgilangan muddatda ko'rib chiqmaslik uchun mansabdor shaxslarga ma'muriy javobgarlikni yuklash, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy undiruvlarni o'rta tacha to'rtidan bir qismiga kamaytirish belgilanmoqda. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik oldida faoliyat shaffofligi va hisobdorligi oshirilyapti. Ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlari xorijiy manbalardan olgan pul mablag'lari va mol-mulk hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi axborotni jamoatchilikka e'lon qilishi nazarda tutilmoqda.

Majlisda hujjat matni Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida jamoatchilik muhokamasi

uchun joylashtirilgani, fuqarolardan kelib tushgan takliflar chuqur tahlil qilinib, ular asosida qonun loyihasi maromiga yetkazilgani alohida qayd etildi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Ortiqcha talablar bartaraf etiladi

Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

U bilan amaldagi qonun normalarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga moslashtirish, Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning hududiy bo'linalarining vazifalari, ularning davlat subsidiyasi, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish jarayonidagi vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Shuningdek, fondlar faoliyatida ortiqcha tekshiruv va byurokratiya tartib-taomillarini kamaytirishga qaratilgan normalar belgilanyapti.

Shu bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni yangi bosqichga ko'tarish, ijobiy baholangan loyihalar yuzasidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish bo'yicha davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida bazaviy hisoblash miqdoringing ming baravarigacha darajada to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilishi mumkinligi kabi normalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgani, deputatlar bergan takliflar tahlil qilingan holda, ularning eng asosli, deb topilganlari hujjat matnida aks ettirilib, u har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilgani aytiladi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida institutsional yaxlitlik va shaffoflik ta'minlanishiga, fuqarolik oshirishiga, ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanishiga, shuningdek, jamoat fondlari faoliyatida ortiqcha byurokratik talablar bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Xususiy ayblov instituti joriy etiladi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqiy asosida ishlab chiqilgan - "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Inson huquqlari kafolatlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan sud-huquq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ham inson, shu jumladan, jabrlanuvchi huquqlari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi.

Shu bilan birga, jinoyat protsessida jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishning amaldagi samarali institutini ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ham joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotiga xususiy ayblov institutini joriy etish nazarda tutilmoqda. Bunda ayrim toifadagi ishlar bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faqat jabrlanuvchining arizasiga asosan boshlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lgani, voyaga yetmagan, huquqbuzarga qaram bo'lgani tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra, o'z huquqini va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida holda vakolatli organning mansabdor shaxsi, jabrlanuvchining arizasiz ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni boshlashi shartligi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Huquqiy eksperiment bo'yicha yagona amaliyot

Huquqiy eksperiment qonunchilik hujjati yoki uning normasi samaradorligini alohida olingan hudud va (yoki) shaxslar doirasida ma'lum vaqt oralig'ida sinovdan o'tkazish bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda yangi tartib-taomillarni hayotga joriy etishdan oldin ularni muayyan hududda yoki shaxslar, tashkilotlar doirasida tajriba-sinov tarzida qo'llash amaliyoti kengayib bormoqda.

Bugungi kunda huquqiy eksperimentni o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni kompleks tarzda tartibga solinmagan. Bu esa huquqiy kolliziyalar, huquqni qo'llashda turlicha talqin qilish va murakkabliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Majlisda muhokama etilgan "Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasida muayyan tartib-taomilni huquqiy eksperimentdan o'tkazish vaqt, hudud va shaxslar doirasida bo'yicha olib borilishi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, huquqiy eksperiment o'tkazish shakllari va usullari, uni tashkil etish va o'tkazish shartlari, huquqiy eksperiment natijalarini baholash tartibi va ularni rasmiylashtirish bo'yicha talablar o'z aksini topmoqda. Huquqiy eksperimentning ijtimoiy ahamiyati va murakkablik darajasiga ko'ra, olti oydan uch yilgacha bo'lgan muddatda o'tkazilishi nazarda tutilyapti. Shuningdek, lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish, davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini qisqartirish yoki tugatish, sud-tergov faoliyatini tartibga solish, amniyatiya va afv etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklaydigan, bekor qiladigan yoki ularning ahvolini yomonlashtiradigan holatlarga nisbatan huquqiy eksperiment tatbiq etilmasligi belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi huquqiy eksperiment bo'yicha yagona amaliyotni joriy etishga, huquqni qo'llashdagi turlicha talqin va murakkabliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solinadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqiy asosida ishlab chiqilgan - sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan muhokama qilindi.

Majlisda dastlabki qadam sifatida qonunchilikka sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslariga oid qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilayotgani ta'kidlandi. Xususan, "Sun'iy intellekt" tushunchasiga ta'rif berilishi bilan birga, sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda maxsus vakolatli organning vazifalari, axborot resurslarini yaratishda hamda axborot tizimlari ishida sun'iy intellektdan foydalanishning umumiy qoidalari belgilanyapti.

Loyihada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish holda yaratilgan axborot resurslariga markirovka qo'yish talabi nazarda tutilmoqda. Sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosasiga asosan muhokama qilindi.

Bundan tashqari, insonning huquq va erkinligiga aloqador qarorlarni qabul qilishda faqatgina sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosasiga asosan muhokama qilindi.

Qonun loyihasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlash berish va uni OAV hamda internetda tarqatganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Majlisda deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to'xtalib, uning yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, takliflarni bildirdi. Loyihadagi ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar ko'tarildi. Qonun tashabbuskorlari berilgan savollarga batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi sun'iy intellektdan foydalanishni yanada rivojlantirish, turli sohalariga joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish, uni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish, sun'iy intellektdan foydalanish holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlash berish va tarqatishning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Majlisda, shuningdek, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tashabbusi bilan Tashqi ishlar vaziri B. Saidovga "Xorijiy mamlakatlarda bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masala ham ko'rib chiqildi va tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".



SAYOHATDAN — DAROMADGA



xabarlar

O'zbekiston — sambo bo'yicha Osiyo — Okeaniya chempionati mezboni

Kecha Toshkent mezbonlik qilayotgan sambo bo'yicha Osiyo — Okeaniya chempionatining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



Mazkur nufuzli musobaqaning ochilish tadbirida Xalqaro sambo federatsiyasi, Osiyo — Okeaniya sambo ittifoqi, Osiyo olimpiya kengashi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi hamda mamlakat sambo federatsiyasi rasmiylari qatnashdi.

Ular o'z qiziqishlarida ushbu chempionat nafaqat mintaqada, balki jahon miqosida ham katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashdi. Shuningdek, O'zbekistonda noolimpiya sport turlari, xususan, samboning rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani qayd etildi.

Marosimdan so'ng musobaqaning final blokiga start berildi, bellashuvlar qizg'in tarzda davom etmoqda.

Sabina Boboqulovaga teng keladigani yo'q

Bokuda boks bo'yicha bo'lib o'tayotgan "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turnirida ayollar terma jamoamiz bittadan oltin va kumush, shuningdek, uchta bronza medalini qo'lga kiritdi.



Final bellashuvlarida 50 kilogrammgacha vazn toifasida Sabina Boboqulova oltin medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, vazni 48 kilogrammgacha bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida Jasmin Tohirova kumush medalga egalik qildi. Shuningdek, Uzuqjamol Yunusova, Oysha Toirova, Oltinoy Sotimboyeva musobaqaning bronza medal bilan taqdirlandi.

Eslatib o'tamiz, musobaqaning erkaklar o'rtasidagi final bahslarida uch nafar vakilimiz (Nodirbek Allaberganov, Sayat Ilyasov, Jasurbek Yo'ldoshev) ringga ko'tarildi.

"Universiada" g'olibi — xorazmlik yoshlar

Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasidagi "Universiada" o'yinlarining futbol musobaqalari 4 bosqichda — avval hududlar va mintaqalararo kechgan bo'lsa, yaqinda respublika final o'yinlari bo'lib o'tdi.



Unda 14 ta oliyog' jamoasi 4 ta guruhga bo'lingan holda bahslashdi. Qiziqarli kechgan o'yinlar sarhisobiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent viloyati, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarining talaba-sportchilar jamoasi yarimfinalga yo'l oldi.

Yarimfinalda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti jamoalari final yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Urganch shahridagi "Yoshlik" sport majmuasida o'tgan final bosqichida Urganch davlat universiteti jamoasining qo'li baland keldi. Shunday qilib, 2-o'rin Toshkent viloyati, 3-o'rin Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba-futbolchilar jamoasiga nasib etdi.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").

"Xalq so'zi".

Nuqtai nazar

Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayapti. Xususan, o'tgan 8 yilda 6,5 milliard dollar sarmoya kiritilib, 130 mingta mehmon o'ri ochildigan. Bugungi kunda 20 ta turizm qishlog'i faoliyat yuritmoqda. Parkent tumanining "Oltin bel" cho'qqisida xalqaro darajadagi yangi tog'-chang'i zonasi barpo etilyapti.

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida hududlarning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish masalalari haqida so'z borib, sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar bildirildi.

Ta'kidlanganidek, yurtimiz tarixi, madaniyati va tabiatiga asoslanib, sayyohlarni yana 2-3 karra ko'paytirish mumkin. Lekin ayrim hududlarda yo'l va transport noqulayligi, ko'ngilochar joylar va qiziqarli dasturlar yetishmasligi kabi kamchiliklar mavjud. Shu bois yig'ilishda joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, turizm yo'nalishlarini ko'paytirish, sayyohlarga sharoitlarni kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Masalan, Sariosiyo tumanining asosiy qismi tog'lardan iborat bo'lib, qishki turizm uchun katta salohiyat bor. U yerda dor yo'li, mehmonxona va savdo-servis xizmatlari yo'nalishida 200 million dollarlik loyihalar qilsa bo'ladi. Chortoq tumani ham go'zal tabiiy, shifobaxsh suvi bilan mashhur. Mutasaddilarga shu kabi 36 ta tuman va shaharni etno, gastronomik, tibbiy, ekstremal, madaniy-tarixiy, ziyorat, qishki va agroturizm asosida rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Bugungi kunda "BBC", "Euronews" kabi nufuzli telekanallarda, 20 dan ortiq xalqaro ko'rgazmalarda O'zbekistonga sayohat keng targ'ib qilinmoqda. Viza tartiblari soddalashtirilyapti, zamonaviy



samolyotlar olib kelyapti. Endi bu imkoniyatlardan foydalanib, sohadagi salohiyatli bozorlardan sayyohlarni jalb etish, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Qisqa muddat ichida katta o'sish

Turizm sohasiga berilayotgan e'tibor tufayli 2024-yilda jami 8,2 million nafar chet el fuqarosi yurtimizga turistik maqsadlarda tashrif buyurdi (2017-yilda bu ko'rsatkich 2,6 millionga teng edi). Demak, qisqa muddatda 3 barobar o'sishga erishildi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad 4 barobar o'sdi. Yurtimizga tashrif buyurgan har bir sayyoh o'rtacha 323 dollar sarflagan. Sohaga berilayotgan e'tibor va imtiyozlar hisobiga mamlakatimizda 2030-yilga borib sayyohlar oqimini 15 millionga, ichki turizm bo'yicha esa 25 millionga yetkazish reja qilingan.

Bunday keng ko'lamli ishlar jahon hamjamiyati va xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Butunjahon turizm tashkilotining "Eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari" ro'yxatida, shuningdek, mashhur "Gellop" ijtimoiy tadqiqot markazining "Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelyapti. Shu bilan birga, O'zbekiston AQSHning "National geographic traveler awards" ro'yxatida "Yil yangiligi" hamda "Gastronomik turizm" nominatsiyalari g'olibi bo'ldi. "Jahon musulmon sayyohlari indeksi"da "Eng kuchli sayohat yo'nalishi" sifatida tan olingan.

Sayyohlikning Toshkent — Samarqand va Navoiy — Buxoro yo'nalishlari uchun yana 6 ta tezyurur poyezd olib kelinishi, yurtimizda 600 kilometr qo'shimcha temir yo'llar qurilishi ko'zda tutilgan. 2025-yildan boshlab Toshkent — Xiva tezyurur poyezdi qatnovi yo'lga qo'yiladi, 2026-yildan esa ushbu yo'nalish Nukus shahrigacha uzaytiriladi. Shuningdek, Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida pulik avtomagistral quriladi. Natijada ushbu yo'nalishlarda manzilga yetib borish vaqti 2 barobar qisqaradi. 2030-yilga qadar yana 56 ta zamonaviy avialayner olib kelish va aviaparkdagi samolyotlar sonini 100 taga yetkazish maqsad qilingan, aviaqatovlar soni 4 barobar oshiriladi.

Bundan tashqari, katta shahar va sayyohlar gavjum manzillarda 30 ta yirik turizm klasteri tashkil etiladi. Mintaqaviy davlatlari bilan qo'shma sayyohlik yo'nalishlarini yaratish, Markaziy Osiyoda transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, "Bir tur — butun mintaqa" dasturini amalga oshirish doimiy e'tibordir.

Ayni paytda Milliy turizm yagona platformasi ishlab chiqilmoqda. Endi unga elektron viza berish, chipta olish jarayonlari ham ulanadi. Shuningdek, barcha tarixiy obidalariga kirish imkonini beradigan "yagona turistik karta" joriy qilinadi. So'nggi yillarda ichki turizmga e'tibor kuchaygani uchun mahalliy sayyohlar soni 23 millionga yetdi. Lekin haligacha boshqa viloyatlarga sayohatga bormaganlar ko'p topiladi.

Shu bois endi har o'nying bir shanba-yakshanbasi "Oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni", deb e'lon qilindi, bu mehnat jamoalarida ishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Umuman, bunday imkoniyatlar evaziga bu yil 15 million turistni jalb qilish va eksportni 4 milliard dollarga yetkazish mumkin.

Investitsiyaviy loyihalar tahlili

Aytish joizki, ushbu serdaromad soha tarmoqlarini rivojlantirish, hududlarning, ayniqsa, tabiatning, geotuzilmalarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish iqtisodiyotimizga juda katta foyda keltirishi tayin. Sohadagi muvaffaqiyat ko'plab ijobiy omillar — yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, byudjet

tizimining daromadlar qismini to'ldirish, madaniy meros obyektlarini saqlash, turistlar oqimini ko'paytirishga olib keladi.

Shu ma'noda, yig'ilish kun tartibidagi ikkinchi masala — xorijiy davlatlar bilan hamkorlikdagi investitsiyaviy loyihalar tahlili bo'ldi.

O'zbekistonning investitsiyalarni jalb etish, ularni rag'batlantirish, imtiyozlar berishga oid siyosatini ta'bir joiz bo'lsa, bir maromda urayotgan yurakka o'xshatish mumkin. Yurtimizda keyingi 3 yilda uch marotaba Toshkent xalqaro investitsiya forumi va boshqa shu singari tadbirlar o'tkazilishi, ularda davlatimiz rahbarining muntazam ishtiroki investorlarning O'zbekistonga qiziqishini oshirdi. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Zero, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rish — kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri.

Ochiqlik va kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyotimizning barqaror o'sishi ta'minlanayapti. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetdi, xorijiy investitsiya 1,6 barobar o'sib, 34,9 milliard dollarni tashkil qildi, qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushirildi, eksport ilk bor 27,7 milliard dollarga chiqdi. O'tgan yili 50 ta tumaniga 100 million dollardan ko'p sarmoya kirib keldi (2023-yilda bunday tumanlar 11 ta edi).

Tog'-kon, neft-gaz, kimyo, qishloq xo'jaligida reja ikki karra ortigi bilan bajarildi. O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanini hisobga olsak, raqamlar bundan-da katta bo'lishi mumkin. Afsuski, yetarli sharoit bo'la turib, investitsiya masalasiga panja ortidan qarash uchrab turibdi. Ayrim holatlarda O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan sanalgan korxonalar imkoniyat bo'la turib, "olma pish, og'zimga tush" qabilida ish tutishi,

O'zbekistonda diqqatga sazovor joylar ko'p, landshaft xilma-xil, tarixiy va madaniy meros juda boy, iqlim mo'tadil, muhimi esa, sayyohlar uchun mos xizmat, ko'ngilochar tadbir-tomoshalar uyushtirilsa kifoya. Shuni e'tiborga olgan holda, yurtimizning har bir hududi mutasaddilari qo'ni qovushirib o'tirmay turizmni rivojlantirish orqali mamlakat byudjetini to'ldirishga hissa qo'shishi shart.

Gulnora ABDURAHMONOVA, TDIUning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ENERGIYA RESURSLARI CHEKSIZ EMAS

Mamlakatimizda aholi sonining oshishi va iqtisodiyot tarmoqlarida o'sish sur'atlarining jadallashuvi natijasida elektr energiyasi va tabiiy gazga bo'lgan talab yil sayin ortib bormoqda. Tahlillarga ko'ra 2035-yilga borib elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj 1,7 barobar oshadi. Bu esa resurstejamkor iqtisodiyot modeliga o'tish jarayonini jadallashtirish bilan bir qatorda energetika tarmog'idagi talon-torajlarga qarshi qat'iy kurashishni talab etadi.

Nazorat

Bu haqda Prezidentimiz joriy yil 19-fevral kuni energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar tadqiqoti bilan tanishish jarayonida fikr yuritib, hudud va tarmoqlar kesimida energiya isrofini kamaytirish, talon-torajlarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Taassufki, iqtisodiyot ravnaqi va turmush farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan

elektr energiyasidan o'z manfaatlari yo'lida noqonuniy ravishda foydalanayotgan kimsalar oramizda yo'q emas. 2025-yilning o'tgan davrida bunday xatti-harakatlarni sodir etgan 350 ga yaqin iste'molchilar aniqlangan fikrimizga asos bo'la oladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan huquqni muhofaza etuvchi organlar, elektr va gaz ta'minoti

korxonalarini mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan bu holatlar tufayli yetkazilgan zarar miqdori yanada salmoqli.

— Joriy yil boshidan buyon 25,4 mln. metr kub tabiiy gaz va 29,4 mln. kilovatt-soat elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilishi natijasida davlat manfaatlariga 98 mlrd. so'mdan ortiq zarar yetkazilganligi ma'lum bo'ldi, — deydi inspeksiya boshlig'i o'rinbosari Xurshidjon Eshqo'ziyev. — O'tkazilgan nazorat tadbirlarida miqdori 370,8 tonna, qiymati 6,3 mlrd. so'mlik neft mahsulotlaridan belgilangan tartiblariga zid ravishda foydalanish holatlari aniqlandi. Energiya resurslaridan foydalanishda iste'molchilar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar bo'yicha 342 ta ma'muriy ish

rasmiylashtirildi. Ularning 142 tasi elektr energiyasi, 200 tasi esa tabiiy gazdan foydalanish bilan bog'liq.

Hozirgacha 7 ta viloyatda 4,6 mlrd. kilovatt-soat elektr va 1 mlrd. kub metr gazni iqtisod

qilish imkoniyatlari aniqlandi. Agar shu imkoniyatlardan to'la foydalanilsa, muntazam tok o'chishlarining oldini olish hamda aholini elektr energiya bilan uzluksiz ta'minlash borasida muhim qadam qo'yiladi.

Ayni chog'da aholiga elektr energiyasi yetkazib berish bilan bog'liq infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalari ham muhim o'rin tutadi.

— H u d u d l a r d a g i podstantsiyalar va transformator punktlaridagi kontaktlar hamda bolti birikmalarda paydo bo'layotgan qizishlarni aniqlash bo'yicha teplovizor ko'rikleri ham amalga oshirildi, — deya fikrini davom ettiradi X. Eshqo'ziyev. — Unga ko'ra 1 364 ta podstantsiya va transformator punktidagi elektr qurilmalarning 4 134 tasida me'yordan ortiq qizish holatlari

aniqlandi. Shundan 941 tasi bartaraf etildi. O'z vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qaragan mutasaddilarga tegishli choralar ko'ridi.

Shu o'rinda bir faktni aytib o'tish lozim. O'tgan yil davomida tabiiy gaz va elektr energiyasidan 8 289 marotaba noqonuniy foydalanish va qoidabuzarlik holati sodir etilgan bo'lib, buning natijasida davlat manfaatlariga 1 trln. 409 mlrd. so'm zarar yetkazilgan. Agar insofsiz iste'molchilarga qarshi qat'iy kurash olib borilmasa, bu yilgi ko'rsatkichlar ham bundan kam bo'lmasligi aniq. Bu esa nafaqat inspeksiya, balki sohada faoliyat yuritayotgan har birimizga bog'liq masala.

O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi "Hunarmand" jurnalining taqdimotini o'tkazdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.49 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.